

## FEYKLARNING IJTIMOYIY TARMOQ VA BLOGLARDA TARQALISHIGA YORDAM BERUVCHI OMILLAR

*Nodira Qurbonboyeva Yusufjon qizi*

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar  
universiteti II-bosqich magistranti*

### Аннотатсия

Yigirma birinchi asrda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarga bo'lgan talab ijtimoiy tarmoqlar orqali qondirilmoqda. Ammo Ijtimoiy tarmoqlarning axborot maydoniga kirishining qat'iy qoidalarining yo'qligi tasdiqlanmagan va yolg'on xabarlar keng auditoriyaga kirishiga imkon bermoqda. Ushbu maqola feyklarining ijtimoiy tarmoqda hamda bloglarda tarqalishiga yordam beruvchi omillarga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** soxta yangiliklar, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari, kommunikatsiya texnologiyalari.

Bugungi kunda axborot platformalarida «feyk» atamasi ancha faol aylanmoqda. Qandaydir xabarning shov-shuv bo'lib, keng rezonansga sabab bo'lishi, biroz muddatdan so'ng esa uning «feyk» bo'lib chiqqani haqidagi xabarlar ham tez-tez uchrab turibdi. Ushbu holatda Internet texnologiyalarning rivojlanishi munosabati bilan atrofimizdagi olam haqidagi ma'lumotlarga bo'lgan aholi so'rovi aynan Internetda, xususan, ijtimoiy tarmoqlarda tobora ko'proq qondirilayotganini hisobga olish zarur. Ijtimoiy tarmoqlar mutlaqo boshqacha muhit: unda an'anaviy ommaviy axborot vositalari bilan solishtirganda, axborotni tarqatishning qat'iy tamoyillari va qoidalari yo'q. Aynan shu holat Internetni feyklarni tarqatish uchun juda qulay vositaga aylantiradi. Zero, birgina telefon ma'lumotni bir necha soniya ichida dunyo bo'ylab tarqatish uchun yetarli<sup>1</sup>.

Shu o'rinda, feyk nima ekanini izohlab ketsak, feyk — (inglizcha) soxta, qalbaki degan ma'nolarni anglatadi. Haqiqatga juda o'xshab ketadigan yolg'on xabarlar, maxsus dasturlar orqali o'zgartirilgan fotosuratlar, montaj qilingan videoroliklar, ijtimoiy tarmoqlarda boshqa shaxslar (odatda mashhur insonlar) nomidan ochilgan yolg'on akkauntlar feyklarga misol bo'la oladi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Allcott H. Social media and fake news in the 2016 election [Электронный ресурс] / National Bureau Economic Research; H. Allcott, M. Gentzkow.

<sup>2</sup>[https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A4%D0%B5%D0%B9%D0%BA\\_\(%D0%B7%D0%BD%D0%B0%D1%87%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D1%8F\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A4%D0%B5%D0%B9%D0%BA_(%D0%B7%D0%BD%D0%B0%D1%87%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D1%8F))

An'anaviy ommaviy axborot vositalaridan farqli o'laroq, soxta xabarlarni tarqatishning asosiy vositalaridan biri layk va repostlardir. Repost — bu bir foydalanuvchi yoki sahifa boshqa foydalanuvchi yoki sahifaning postini o'z tasmasida sharhi bilan yoki izohsiz tarqatishidir. Bunda postni qancha ko'p odam repost qilsa, shuncha ko'p odam uni ko'ra oladi. Repost axborot almashishning tezkor usuli bo'lib, bu xususiyat foydalanuvchiga ma'lumotni sanoqli soniyalar ichida tarqatish imkonini beradi<sup>3</sup>. “Layk” esa ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, internet-forumlar, yangiliklar saytlari uchun mo'ljallangan muloqot dasturidagi funktsiya bo'lib, foydalanuvchilarning ma'lum bir kontentga munosabatini bildirish uchun ishlatiladi. Tarmoqlardagi foydalanuvchilarning xatti-harakatlari ma'lumot iste'molchisiga katta ta'sir ko'rsatadi: agar kamida bitta “do'st” mavjud postga qiziqish bildirsa, shaxsning u yoki bu reklama postining tarqalishi yoki “layk”lar yig'ishi ehtimoli keskin oshadi va asta-sekin o'sib boradi. Shuningdek, aytish kerakki, feyklar, asosan, tanishlar orasida tez va keng tarqaladi. Zero, aksariyat hollarda foydalanuvchilar ijtimoiy tarmoqlarda o'ziga yoqqan, qisman yoki to'liq ishonadigan odamlarini kuzatib boradi. Shunga ko'ra, ular tarqatayotgan ma'lumotlarga ishonishga moyil bo'ladi. Oddiy qilib aytganda, soxta yangiliklarga ishonch do'stlar va oilaga bo'lgan ishonchdan kelib chiqadi<sup>4</sup>.

Feyklarning tarqalishiga, asosan, qanday omillar sabab bo'lishini quyida ko'rish mumkin:

- Yorqin sarlavhalar (clickbait), qisqa matn;
- Foydalanuvchilar orasida tez tarqalishi;
- O'quvchilarni qiziqtiradigan dolzarb mavzular (sirlar, fitnalar, yolg'onlarning oshkor etilishi, taniqli shaxslar hayotining tafsilotlari va boshqalar)ni o'z ichiga olishi;
- Ularni yaratish tezligi rasmiy xabarlarni yaratish tezligidan bir necha baravar yuqori ekani.
- O'quvchilarning rasmiy OAVga ishonchsizligi<sup>5</sup>.

Feyklarning eng yomon illati o'z-o'zini ko'paytirish qobiliyatidir. Ya'ni bunday xabarlar birdan bolalaydi, yolg'on tafsilotlar bilan boyib boradi, odamlar tobora ko'proq chalg'iydi. Feykdan maqsad adashtirish, chalg'itish, omma fikrini boshqarishdir. Feyk axborotlarning urchib ketishi muayyan shaxslarning obro'si to'kilishiga, jamiyatda vahima kayfiyati paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, feyklar ommaviy axborot vositalarining obro'yiga ham ziyon yetkazadi, ularga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'ladi. Shu bois feyklarni tarqatishdan OAV ham, har bir odamning o'zi ham himoyalaniishi kerak<sup>6</sup>.

<sup>3</sup> <https://neumeka.ru/repost.html>

<sup>4</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9D%D1%80%D0%B0%D0%B2%D0%B8%D1%82%D1%81%D1%8F>

<sup>5</sup> Дукин Р. А. Феномен социальных медиа: проблема социологического осмысления // Вестник Нижегородского ун-та. Сер. «Социальные науки». 2015.

<sup>6</sup> <https://kun.uz/uz/news/2019/07/02/fake-news-soxta-xabarlardan-qanday-saqlanish-mumkin>

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Дукин Р. А. Феномен социальных медиа: проблема социологического осмысления // Вестник Нижегородского ун-та. Сер. «Социальные науки». 2015.
2. Allcott Н. Social media and fake news in the 2016 election/ National Bureau Economic Research; Н. Allcott, М. Gentzkow.
3. <https://kun.uz>
4. <https://ru.wikipedia.org>
5. <https://neumeika.ru>